

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-3, ISSUE-6

ABDULLA QAHHOR ASARLARDA SINONIMLIK XODISASI

Abdambetova Gulnara Tursinbayevna

Qorao'zak tumani 26-maktab o'qituvchisi

Abdulla Qahhor o'zbek milliy tili taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan yirik so'z san'atkoridir. Adib tilimiz ma'naviyativiz taraqqiyotiga muhim hissa qo'shib, axloqiy qadriyatlarni ulug'lagan. "Biron-bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi". Zero, adib asarlarining shuhrati, sevilib o'qilishi unda axloqiy qadriyatlarning ustunligi, qo'llangan so'z, iboralarning «ko'pchilik xumdonidan pishib chiqqan yangi hayot ayvoniga ustun bo'lish» darajasida fikr bezagi, nutqimiz ko'rki vositasi ekanligidir. Mazkur g'oyaviy estetik aksiomaga Abdulla Qahhor o'zining butun ijodiy faoliyati davomida ulug' yozuvchilar singari milliy nutq madaniyati taraqqiyotini kuzata borib, uning takomillashuvi, silliqlashuvi yangi so'z shakllari, iboralar bilan boyishini o'ziga xos lug'aviy birliklar qo'llash uslubi bilan erishganligi shubhasizdir. Bu jihatdan adib qo'llagan zaharli so'z, olovli qamchi, erkak sabzi singari ko'plab o'xshatishlar, falsafa sotmoq, nasiyaga mol so'ramoq, keraksiz pardani ko'tarmoq singari yuzlab frazeologik birliklar, oq poshsho bo'lmasa, ko'k poshsho bo'lar, eshakni yashirsangiz hangrab sharmanda qiladi kabi qator maqollarning uslubiy qo'llanishi, alohida diqqatga sazovor bo'lgan lug'aviy vositalardir.

Fikrimizcha, mohir zargar, tilla, dur va xilma-xil qimmatbaho toshlardan xaridorga manzur taqinchoqlar yasasa, A.Qahhor ham xalqona lugaviy birliklarni aynan yoki ijodiy qayta ishslash bilan turli uslubiy maqsadlarda qo'llab, o'z asarlarining umrboqiyligini ta'minlagan va kitobxonlarga manzur bo'lishiga to'liq erisholgan.

Badiiy nutq obrazli va emotsiyal-ekspressiv ifodalilikka ega ekan, bunda tilning kommunikativ funksiyasi bilan emotsiyal-ekspressivlilik funksiyasi qo'shilib ketadi. Shunday ekan, badiiy asarni idrok qilish til qurilishini anglash orqali amalgalash oshiriladi. «Badiiy nutq stili avtorlarga asarning estetik ta'sirini kuchaytirish uchun tilning barcha leksik va grammatik vositalaridan ustalik bilan foydalanish, tanlash, shuningdek, yangidan-yangi ifoda vositalari yaratish imkonini beradi». Yozuvchilarining til vositalaridan foydalanishdagi individual ijodiy mahorati turlichadir. Badiiy asar tili va yozuvchi uslubini o'rganishda, ko'pincha, leksik, frazeologik vositalar, badiiy tasvir vositalari, ijodkorning okkazional so'z va ibora yaratish mahorati kabi masalalar o'rganiladi-yu, ularning fonetik va grammatik xususiyatlari e'tibordan chetda qoldiriladi. Lekin Abdulla Qahhor asarlari tahliliga jiddiy yondashilsa, tilning barcha sathlari uchun ham boy poetik material bera olishi kuzatiladi. Abdulla Qahhor asarlarida sinonim so'zlarning qo'llanishi.

Sinonimlar yunoncha *synonymos* – bir nomli ya'ni bir umumiyl ma'noga ega bo'lgan, qo'shimcha ma'no ottenkasi, uslubiy bo'yog'i, qo'llanishdagi xususiyati va shu kabi belgilari bilan farqlanadigan so'zlar. Misol: Behuda gap! Mana mening xotinim nima ekanini o'zim bilaman. Paranjisini tashlab ikki kun ko'chada yursin-chi! U odamning zardasi qaynab ketdi: — Nega ko'chada yuradi? Ko'chada paranjilik yursa ham ayniydi-da! To'g'risini aytaymi?

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-3, ISSUE-6

Paranjilik xotin harom ishga yaqinroq bo‘ladi. Sabab deng! Agar siz yuziga kulib qaramasangiz, devorg‘a shoti qo‘yib ko‘chaga mo‘ralaydi: ko‘ylaklik olib bermasangiz, tom orqasidan ko‘ylaklik uzatadigan chiqib qoladi. Ochilgan xotin-chi, ko‘ylak olib bermasangiz o‘zi ishlab, o‘zi oladi. Paranjili tashlatmoq, paranjili-siz yurishga imkon yoki ruxsat bermoq. Tuxum bosib, undan jo‘ja chiqarmoq. Tovuq o‘nta jo‘ja ochibdi. Musicha bola ochibdi. -Biz yorug‘ dunyonim ko‘rish uchun tug‘ilganmiz, Turg‘unoy!— dedi Maston. - Biz tovuk emasmizki, qanday tuxum bostirsa, shuni ochib chiqarsak.

Yigit hayron edi: «Buning husnigina emas, hatto kiygan kiyimi ham mo‘jiza-ku, nega mening otimni biladi, nega yani o‘zini past olgan tovush bilan so‘raydi?», Yigit afv so‘radi: Mening qulog‘imga Saidiy bo‘lib kiribdi,— dedi va cho‘ntagiga solgan qog‘ozlarini yana qo‘liga oldi. Abdulla Qahhor o‘z asarlarida ko‘chma ma‘noli so‘zlarni mohirlilik bilan qo‘llay olgan yozuvchilardan. Asarlarini tahlil qilib o‘qish jarayonida bir necha o‘rinlarda ko‘chma ma‘noli so‘zlarni qo‘llaganiga guvoh bo‘ldik. Misol: — Men sizga biron narsa deyabmanmi? Tikib qo‘yarman. Har narsaga ro‘zg‘or achchiq bo‘la bersa... qiyinroq bo‘lar.- dedi To‘rabjon yaktagim kiyayotib, -kambag‘alchilik o‘lsin. — Tanlanganl asarlar Bu achchiq leksemasing asil ma‘nosи istemol qilinadigan sabzavotning tami. Bu yerda esa o‘sha achchiq tamga o‘xshatilgan. Yo‘l bo‘yidagi ariqlar ahti burishganicha muzlab qolgan, daraxtlar cho‘ltoq supurgiga o‘xshaydi.

Badiiy asar tilining badiiy-estetik funksiyalarini tilshunoslik aspektida o‘rganish muayyan asar yaratilgan davr tilining o‘ziga xosligi, yozuvchilarining so‘z boyligi, til vositalaridan foydalanish usullarini, demakki, «xalqning ruhi» bo‘lgan tilga ijtimoiy ta‘sirlarni tahlil qilish bilan chambarchas bog‘liq. Shu kunga qadar o‘zbek filologiyasida uslubiyat va uslubshunoslik, uslub tushunchalari o‘zining aniq va lo‘nda ta‘rif-tavsifiga ega emas. Bu masalaga turlicha yondashuvlar va ayrim chalkashliklar davom etib kelmoqda. Bizningcha, muayyan janrga xos xususiy belgilarni uslub tushunchasi, janrlararo umumiyl belgilarni metod tushunchasi ifodalaydi. «Umumiylig»ka xos bo‘lgan tushunchalar metod doirasida tekshirilishi kerak. «Xususiylik»ka xos bo‘lgan tushunchalar uslub doirasida tekshirilishi kerak. Usul esa, muayyan ijodkorning individual uslubi doirasida tanlagan tasvir yo‘lidir. Ijodkorning individual uslubini o‘rganish murakkab jarayon bo‘lib, u ham adabiy, ham lingistik tahlil imkoniyatlarini o‘zida mujassamlashtiradi va shu tarzda shoir yoki yozuvchi ijodiy tafakkuri o‘ziga xos jihatlarining qay tarzda yuzaga chiqishini tekshiradi. Bu tarzdagi tadqiqotlarni «ma‘lum bir ijodkorning tildan foydalanish mahoratiga doir ishlar» sifatida alohida guruhga ajratish maqsadga muvofiqdir. Abdulla Qahhor ijodidagi o‘ziga xos okkazionalizmlarning matn jozibadorligi, badiiy bo‘yoqdorligi, hissiy ta‘sirchanligini oshirishdagi o‘rni xarakterlidir.

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-3, ISSUE-6

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Uldawlet, D. (2021). PSYCHOLOGICAL MECHANISMS THAT INCREASE THE EFFECTIVENESS OF THE EDUCATIONAL PROCESS. Open Access Repository, 1(02), 52-53.
2. Norov, I. K., Shirinova, N. A., & Yuldasheva, S. S. (2020). BADIY ASARNI TAHLIL QILISHDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH. In Молодой исследователь: вызовы и перспективы (pp. 124-126).
3. CONFERE, I. P. (2020). Eurasian Education, Science and Innovation.
4. Gulmurza, K. (2021). Synonymy in Uzbek and Karakalpak Phrases with the Concept of "Speech". American Journal of Social and Humanitarian Research, 2(6), 98-103.
5. Yuldosheva, N. E. (2021). UZBEK LANGUAGE SYNTAX RESEARCH METHODOLOGY. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 2021(06), 370-380.

C M R T